

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MAHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI



YER AXBOROT TIZIMI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Qishloq va suv xo'jaligi
Ta'lim sohasi:	410000 – Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	5410700 – Yer kadastri va yerdan foydalanish

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: G'.Aliqulov – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasida dotsenti.

N.Abdirahmatov – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasida assistenti.

Taqrizchilar:

M.Bozorov – QarMII “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrasida dotsenti.

SH.Niyazov - “O‘zdaverloyiha” DILI Qashvilerloyiha bo‘linmasi bosh muhandisi

Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil “ _____ ” “ _____ ”dagi “ _____ ” - sonli bayonnoma).

KIRISH

“Yer axborot tizimi” fanining asosiy maqsadi uzluksiz ta’lim tizimi asosida “Yer tuzish va yer kadastr” hamda “Geodeziya, kartografiya va kadastr” bakalavr ta’lim yo’nalishlariga mo’ljallangan bo’lib, ko’chmas mulkni shakllantirish va ro’yxatga olish bo’yicha uslubiyatlarini ishlab chiqish kabi masalalarni mustaqil hal qila oladigan darajada malakali bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

“Yer tuzish va yer kadastr” ta’lim yo’nalishi uchun “Yer axborot tizimi” tanlov fanlardan hisoblanadi. Fanni o’rganish ko’chmas mulkni shakllantirish va ro’yxatga olish, yerdan foydalanuvchilar bo’yicha davlat ro’yxatini olib borish, ko’chmas mulklarni miqdor va sifat hisobini hamda yer maydonlarini baholash ishlarini takomillashtirishga, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini rejalashtirish, yer tuzish va yerga haq to’lashga oid tadbirlarni amalga oshirishda zarur bo’lgan ma’lumotlarni qo’llashga qaratilgan.

Fanning maqsad va vazifalari

Ko’chmas mulkni shakllantirish va ro’yxatga olish fanining asosiy maqsadi qayd etilgan yo’nalish bo’yicha ta’lim oladigan talabalarni mavjud ko’chmas mulklarning holatini tahlil qilish hamda yer uchastkalariga bo’lgan huquqlarni ro’yxatga olishda avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bankini yaratish nazariyasi, uslubiyati va amalda qo’llanilishini mukammal o’rganishdir.

Fanning vazifasi -ko’chmas mulkni shakllantirish va ro’yxatga olishda ilg’or texnologiyalarni qo’llashni mukammal o’rgatish hisoblanadi. Fanni o’zlashtirish jarayonida talaba ko’chmas mulkni shakllantirish va ro’yxatga olish ma’lumotlarini zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish va xaritalashda ilg’or texnologiyalarni qo’llashni o’rganadi.

Fan bo’yicha talabalarning bilimiga, qo’nikma va malakasiga qo’yiladigan talablar

Fanni o’rganish natijasida ko’chmas mulkni shakllantirish va ro’yxatga olish uslublarini takomillashtirish bo’yicha zarur ko’nikmalarga va bilimlarga ega bo’lishi zarur.

“Yer axborot tizimi” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talabalar:

- yer uchastkalarini shakllantirishning asosiy tamoyillarini, sanoat, transport, qishloq xo’jaligi, uy-joy qurilishi va tijorat maqsadlari uchun ajratiladigan yer uchastkalari va ko’chmas mulklarni shakllantirishning tashkiliy-huquqiy masalalarini mustaqil yecha olishni bilishi kerak;

- yer uchastkasini shakllantirish jarayonini boshqarish, yer va ko’chmas mulkka bo’lgan huquqlarni ro’yxatlash bo’yicha ko’nikmalar hosil qilish kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Yer axborot tizimi” fani talaba tanlov fani bo'lib hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Respublikamizning eng asosiy moddiy boyliklaridan hisoblangan yer va ko'chmas mulklarni zamon talab darajasida shakllantirish zamonaviy va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ehtiyojini tug'dirmoqda.

Ushbu fan iqtisodiyot va ishlab chiqarish sohalarida yer va ko'chmas mulklardan samarali foydalanishning nazariy, uslubiy hamda amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Shuning uchun ushbu fan mutaxassislik fani hisoblanib, yer resurslaridan foydalanish va boshqarishning ajralmas bo'lagidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanni o'rganish jarayonida turli ko'rgazmali vositalar, jumladan diafilmlar, devoriy ko'rgazmalardan hamda kompyuter dasturlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Fanni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llanilgan holda ko'chmas mulklarni shakllantirish va ro'yxatga olishni, uslubiy va amaliy masalalarini o'zaro uyg'unlikda olib borishga erishish ko'zda tutiladi

ASOSIY QISM

Fanga kirish

Yer axborot tizimi – yerga oid bo'lgan barcha axborot va ma'lumotlarni yig'ish, to'plash, saqlash va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan amallar majmuidir.

Fanning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti

Yer uchastkalarini shakllantirish to'g'risida umumiy tushuncha. Yer uchastkalarining turlari, guruhlari, ulardan maqsadli foydalanish va shakllantirishning obyektiv zarurati. Ko'chmas mulklarni shakllantirish – yer axborot tizimining asosiy vositasi sifatida. Ko'chmas mulklar bozorini shakllantirish omillari. Shahar va qishloq joylarida ko'chmas mulklarni shakllantirish xususiyatlari. Fanning obyekti va predmeti.

Yer uchastkalarini shakllantirishning asosiy tamoyillari va tarkibiy qismlari

Yer uchastkalarini va yerdan foydalanuvchi subyektlarni shakllantirish nazariyasi va metodologiyasi. Yer uchastkalarini shakllantirish mohiyati va tamoyillari. Yer uchastkalarini shakllantirishning tarkibiy qismlari: huquqiy, iqtisodiy, hududiy, tashkiliy va ekologik masalalar.

Sanoat va transport maqsadlari uchun obyektlarni joylashtirishda yer uchastkalarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari

Sanoat obyektlari (zavodlar, fabrikalar, foydali qazilma konlari) uchun ajratiladigan yer uchastkalarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari. Transport (avtomobil va temir yo'llari, velosiped yo'laklari, vokzallar, aeroportlar, avtostansiyalar, avtokolonnnalar, avtomobil yoqilg'i quyish shaxobchalari va boshqalar) maqsadlari uchun ajratiladigan yer uchastkalarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari.

Qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi va tijorat maqsadlari uchun ajratiladigan yer uchastkalarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari

Qishloq xo'jalik maqsadlari uchun ajratiladigan yer uchastkalarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari va infrastrukturasini. Uy-joy qurilishi obyektlari uchun ajratiladigan yer uchastkalarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari va infrastrukturasini. Tijorat va jamoat obyektlari uchun ajratiladigan yer uchastkalarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari va infrastrukturasini.

Yer uchastkasini shakllantirish jarayoni

Yer ajratish, joyning topografik planini tuzish, demarkatsiya, yer uchastkalarini loyihalash, infrastrukturaning joylashtirish. Yer bozori bo'lmagan sharoitda yer uchastkalarini shakllantirishning xususiyatlari: muammolar va yechimlar. Servitut va cheklashlarni o'rnatishda tashkiliy-huquqiy masalalar. Yer uchastkalaridan noqonuniy-o'zboshimchalik bilan foydalanishning (ko'cha, trotuar, qo'shning yer uchastkasi kabilarning) tashkiliy-huquqiy masalalari.

Ko'chmas mulkga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishda chet el tajribasi

Ko'chmas mulkga bo'lgan huquqlarni ro'yxatlashning amaldagi tizimi. Yevropada huquqlarni ro'yxatlash xususiyatlari. AQShda ko'chmas mulkga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish tajribasi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligidagi mamlakatlarda yer va ko'chmas mulklarga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish

Rossiya Federatsiyasida yer va ko'chmas mulklarga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish tajribasi. Markaziy Osiyo davlatlarida yer va ko'chmas mulklarga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish xususiyatlari. MDH davlatlarida yer va ko'chmas mulklarga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishning umumiy va xususiy tomonlari.

Yer va ko'chmas mulklar uchun avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bankini yaratish zaruriyati

Ro'yxatga olish, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish. Ro'yxatlash bo'yicha elektron ma'lumotlar bankini yaratish algoritmi. Ro'yxatlash hujjatlarining monitoringini yuritish uslublari.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar shahar va qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va qurish usullarini, zarur hamda kerakli ma'lumotlarni hisoblash yo'llarini o'rganadilar.

1. Yer va ko'chmas mulklarni shakllantirishning mohiyati va vazifalari
2. Sanoat, transport va qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun obyektlarni joylashtirishda yer uchastkalarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy masalalari
3. Yer uchastkasini shakllantirish jarayoni tahlili
4. Ko'chmas mulkga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishda chet el tajribasi va MDH davlatlari tajribasi
5. Yer uchastkalarini davlat ro'yxatiga olishning ahamiyati
6. Yer va ko'chmas mulklarni davlat ro'yxatiga olishning huquqiy asoslari
7. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishda chet el tajribasi
8. Yer va ko'chmas mulklarni shakllantirish jarayonida sodir bo'ladigan murakkab vaziyatlarni hal etish uslublari
9. Yer va ko'chmas mulklarni ro'yxatlashda avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish
10. Yer va ko'chmas mulklarni ro'yxatlash hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan metodik ko'rsatma ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek darslik, o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari na'munaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi na'munaviy o'quv rejasida ko'rsatilmagan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ni, "Davlat yer kadastrini to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonunini, "Baholash faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini, O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi"ni, O'zbekiston Respublikasi "Shaharsozlik kodeksi"ni, O'zbekiston Respublikasida yer kadastrini yuritish to'g'risidagi tartib va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqishlari ko'zda tutilgan;

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- yangi texnikalarni, apparaturalarni, ilm talab jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Yer resurslarini boshqarishda ko'chmas mulklarni shakllantirishning ahamiyati.

2. Yer va ko'chmas mulklarni shakllantirish tarixi va tahlili (respublika miqyosida).

3. Yer va ko'chmas mulklarni ro'yxatlashning amaldagi holatining tahlili (ma'muriy tuman misolida).

4. Yer va ko'chmas mulklarni ro'yxatlashning huquqiy va iqtisodiy asoslari.

5. Yerlarni ro'yxatga olishda davlat organlarining funksiyalari.

6. Yerlarni ro'yxatga olishning zamonaviy uslublari.

7. Yer va ko'chmas mulklarni shakllantirish va ro'yxatlash jarayonining senariyalari: muammolar, holatlar, vaziyatlar va ularni hal etish uslublarini o'zlashtirish.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti sifatida quyidagi materiallar foydalaniladi:

- Yergeodezkadastr davlat qo'mitasining (yillik) Milliy hisoboti;

- O'zbekiston Respublikasining yer fondi (yillik);

- Davlat Mulk qo'mitasining yillik hisoboti;

- Davlat Statistika Qo'mitasining yillik to'plamlari;

- Davlat kadastr xizmatlarining yer uchastkalari, binolar va inshootlarni ro'yxatga olish bo'yicha statistik ma'lumotlari;

- Davlat kadastr xizmatlarining yer uchastkalari, binolar va inshootlarni ro'yxatga olish bo'yicha yillik hisobotlari.

Dasturning informatsion – metodik ta'minoti o'z ichiga me'yoriy-uslubiy ko'rsatmalarni, yo'riqnomalarni, takliflarni, na'munaviy obyektlar to'plamlarini,

qurilish qoidalari va normalarini va obyektlarni baholash bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plamlarini oladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Avezboyev S. Yer tuzishning ilmiy asoslari. Darslik. T. "Yangi asr avlodi", 2002.-225b
2. Avezboyev S, Volkov S.N. «Yer tuzishning ilmiy asoslari». Darslik -T "IQTISOD MOLIYA", 2006.-196b y
3. R.X. Alimov, B. B. Berkinov, A. N. Kravchenko, B. Y. Xodiyev. Ko'chmas mulkni baholash. O'quv qo'llanma. T.: Fan, 2005. -223b.
4. Aliqulov G'.N., Jo'raqulov O.D., Niyazov V.R. "Yer uchastkasi va bino-inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yixatidan o'tkazish" O'quv qo'llanma. Qarshi, 2016. -187 b

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Varlamov A.A., Galchenko S.A. Upravleniya zemelnimi resursami. Uchebnoye posobiye. M: GUZ, 2003.-240 s.
2. Yer kadastri. Darslik, Bobojonov A.R., Raxmonov Q.R., G'ofurov A.J. T.: 2008. - 211b.

Internet saytlari

1. www.yergeodezkadastr.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.lex.uz
4. www.realestate.com